

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**QO‘ZIBOYEV SHUXRATJON TURSINALIYEVICH**

**TAKRORIY EKIN SOYADA NITRAGIN VA MINERAL O‘G‘ITLAR  
QO‘LLASHNING KUZGI BUG‘DOY HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI  
(Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation of agricultural  
sciences**

**Qo‘ziboyev Shuxratjon Tursinaliyevich**

Takroriy ekin soyada nitragin va mineral o‘g‘itlar qo‘llashning kuzgi bug‘doy hosildorligiga ta’siri (Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida).....3

**Кузибоев Шухратжон Турсиналиевич**

Влияние применения нитрогина и минеральных удобрений повторной культуры сои на урожайность озимой пшеницы (В условиях светло-серых почв Андижанской области).....19

**Kuziboyev Shukhratjon Tursinaliyevich**

Effect of nitrogen and mineral fertilizer application on winter wheat yield in repeated crop soybean (in the condition of light sierozem soils of Andijan province). ....35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....39

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**QO‘ZIBOYEV SHUXRATJON TURSINALIYEVICH**

**TAKRORIY EGIN SOYADA NITRAGIN VA MINERAL O‘G‘ITLAR  
QO‘LLASHNING KUZGI BUG‘DOY HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI  
(Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi muvzoif O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Qx735 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.andqxai.uz](http://www.andqxai.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.


<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Iminov Abduvali Abdumannobovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponenlar:</b>	<b>Xudayqulov Jonibek Bozarovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  <b>Abdullayev Ismoiljon Ibraximjonovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti</b>


Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning «14» iyun 2024 yil soat 9 daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 170600, Andijon viloyati Andijon tumani, Kuygan-yor shaxarchasi Oliygox ko'chasi, 1-uy. Tel: (99874) 224-02-82; faks: (+99874) 224-02-62; e-mail: [andqxai@exat.uz](mailto:andqxai@exat.uz); Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1 qavat, anjumanlar zali).


Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~N.62704~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Kuygan-yor shaxarchasi, Oliygox ko'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99874) 224-02-82.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «31» 05 da turpatiladi.  
(2024 yil «30» 05 daqi ~~31~~ 05 hujjatini taqdim etish haqida bayonnomasi)



  
A. Iskhov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

  
A.N. Jo'rayev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d., professor

  
Z.M. Jumaboyev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda bug‘doy 100 ga yaqin mamlakatda, jami 215,9 mln. gektar maydonda ekilib, har yili 765,8 mln. tonnadan ortiq don hosili yetishtirilmoqda. “Jahon bo‘yicha yetishtiriladigan kuzgi bug‘doy donining 133,6 tonnasi Xitoyga, 103,6 tonnasi Xindistonga, 74,4 tonnasi Rossiyaga, 52,2 tonnasi AQSHga va 40,6 tonnasi Fransiyaga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. Ushbu davlatlarda kuzgi bug‘doy uchun o‘tmishdosh ekin sifatida dukkakli don ekinlaridan foydalanilgan holda yuqori va sifatli don hosili olishga erishilmoqda.

Hozirda dunyo qishloq xo‘jaligi amaliyotida kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda kuzgi boshqoli don, ertaki kartoshka, sabzavot va poliz ekinlaridan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlarini ekish, ekinlarni oziqlantirish me‘yorlarini belgilashda o‘tmishdosh ekinda qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini inobatga olgan holda belgilash, ularni yetishtirishda resurstejamkor agrotexnologiyalarni qo‘llash, soya ekini urug‘larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berish orqali uni parvarishlashda qo‘llaniladigan azotli o‘g‘itlar me‘yorlarini kamaytirish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

So‘nggi yillarda respublikamizda aholini oziq-ovqat va chorvani ozuqaga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la qondirish maqsadida sug‘oriladigan maydonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Shu munosabat bilan kuzgi boshqoli don va ertaki sabzavot ekinlari hamda silos uchun ekilgan makkajo‘xoridan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekinlarni ekish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 30-maqsadida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish”<sup>2</sup> bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, respublikamizning asosiy sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlarida qo‘llanilayotgan qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarida takroriy ekin sifatida yetishtirilayotgan dukkakli don ekinlari urug‘lariga ekish oldidan nitragin bilan ishlov berish va shu orqali kelgusi yili parvarishlanadigan kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 4 martdagi №121-son “Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish, 2021 yil hosili uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot

<sup>1</sup> <http://www.fao.org/faostat/en/#data/QC/visualize>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish uchun kuzgi boshqali don, ertaki sabzavot va poliz ekinlaridan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlarini ekish orqali tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, shu orqali qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishga ta'sirini aniqlash bo'yicha R.Oripov, N.Xalilov, N.O'razmatov, B.M.Xalikov, A.A.Iminov, F.B.Namozov, Z.M.Jumaboyev, M.M.Tojiyev, Q.Jo'rayev, Ya.Bo'riyevlar, S.Baxromov, kuzgi boshqali don ekinlaridan bo'shagan maydonlarda takroriy ekinlarni parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha X.N.Atabayeva, R.Oripov, N.Xalilov, B.M.Xalikov, N.O'razmatov, N.M.Ibragimov, D.Yo.Yormatova, A.A.Iminov, F.B.Namozov, M.A.Avliyoqulov, Ya.Bo'riyev, M.Tojiyev, F.M.Xasanova, I.T.Karabayev, L.A.Mirzayev, S.R.Xatamov, A.Mansurov, Sh.F.Mirzayev va xorijda H.M.Taylor, H.R.Gardner, B.Volger, O.Christen, B.Pallut, G.Zhou, S.Dieke, B.Malander, J.Strassemeyer kabi olimlar tomonidan keng qo'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan.

Lekin, sug'oriladigan hududlarda takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soyada nitragin va mineral o'g'itlar qo'llashning kuzgi bug'doy hosildorligini oshirish va donning texnologik sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining 16.02.2015 yil IIK-№7-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli don yetishtirishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2015-2018 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekinida nitragin qo'llash va mineral o'g'itlar me'yorlarini kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, don hosili va sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

takroriy ekin soyaning urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilish hamda mineral o'g'itlar qo'llashning tuproqni hajm massasi va agrokimyoviy xossalarga ta'sirini aniqlash;

takroriy ekin soyaning urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilish hamda mineral o'g'itlar qo'llashning uning ildizida shakllanadigan tunganaklar miqdoriga, o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi,

hosildorligi, vegetativ va generativ organlaridagi oziqa moddalari miqdorlariga ta'sirini aniqlash;

kuzgi bug'doy urug'larining laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligiga takroriy ekin soyaning urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilish hamda mineral o'g'itlar qo'llashning ta'sirini aniqlash;

kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi, barg sathining shakllanishi, hosildorligi va donining texnologik sifat ko'rsatkichlariga takroriy ekin soyaning urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilish hamda mineral o'g'itlar qo'llashning ta'sirini aniqlash;

tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida och tusli bo'z tuproqlar, takroriy ekin soyaning "Orzu", kuzgi bug'doyning "Asr" navlari hamda nitraginning *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida tuproqning hajm massasi, agrokimyoviy xossalari, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi, barg sathining shakllanishi, vegetativ va generativ organlari tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlari, takroriy ekin soyaning ildizida tuganak bakteriyalarning shakllanishi, kuzgi bug'doyning hosildorligi va donining texnologik sifat ko'rsatkichlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya sharoitidagi tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", tuproq va o'simliklardagi tahlillar "Методы агрохимических анализов почв и растений", "Методы агрофизических исследований" uslubiy qo'llanmalari asosida, olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi va В.А.Доспеховning "Методика полевого опыта" uslubiy qo'llanmasi hamda iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan inokulyatsiya qilish va mineral o'g'itlar qo'llashning kuzgi bug'doydagi samaradorligi aniqlangan;

takroriy ekin sifatida soya ekini urug'larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan inokulyatsiya qilib ekilishi o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va quruq massa to'plashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida don hosildorligini nitragin qo'llanilmagan variantlarga nisbatan 1,1-3,8 s/ga ortishi aniqlangan;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{30}P_{90}K_{60}$  va  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi tuproqning tarkibidagi oziqa moddalarni o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida gumus miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan uning haydov (0-30 sm) qatlamida 0,028-0,031 foizga, umumiy azot miqdori 0,008-0,010 foizga, umumiy fosfor miqdori esa 0,012-0,014 foizga ortishi aniqlangan;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan

nitragin bilan inokulyatsiya qilib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorda qo'llash orqali kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi, barg yuzasining shakllanishi, hosildorligi va donining texnologik sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlari aniqlangan.

kuzgi bug'doy hosildorligi takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgandan so'ng 61,7 s/ga bo'lib, donning texnologik sifat ko'rsatkichlari (naturasi 806,4-813,1 g/l, oqsil 14,2-15,0 % va kleykovina 27,9-28,4 %) yaxshilanganligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Och tusli bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekin sifatida soya ekini urug'larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan ishlov berilgan urug'lari ekilib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorda qo'llanilishi undan 28,2 s/ga don hosili olishni ta'minlab, mineral o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantlariga nisbatan 12,6 s/ga, takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berilib, mineral o'g'itlar qo'llanilmagan variantga nisbatan 6,6 s/ga miqdorida qo'shimcha don hosili olishni ta'minlagan;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berish hamda mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorda qo'llanilishi kuzgi bug'doyning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etib, o'simlikning bo'yi 103,2 sm ni, umumiy poyalar soni 620,4 donani, mahsuldor poyalar soni 480,6 donani, bitta boshodagi don soni 42,0 donani, bitta boshodagi don vazni 1,54 g ni, 1000 dona don vazni 43,0 g ni tashkil etgan. 1 o'simlikning umumiy quruq massasi 15,26 g ni, shundan ildiz massasi 2,26 g, yer ustki qismi massasi 13,00 g ni tashkil etib, bir tup o'simlikning ildiz bilan ta'minlanganlik darajasi 14,81 % ni, barg yuzasi esa 32,8  $sm^2$  ga bo'lganligi aniqlangan;

kuzgi bug'doyning hosildorligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berilib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda kelgusi yili kuzgi bug'doy parvarish qilingan variantdan olinib, 61,7 s/ga ni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berilmasdan mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda kelgusi yili kuzgi bug'doy parvarish qilingan variantga nisbatan 2,0 s/ga, soya ekinida nitragin qo'llanilmasdan, o'g'itsiz parvarish qilingan nazorat variantiga nisbatan 10,8 s/ga miqdorida qo'shimcha don hosili olishni ta'minlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala va laboratoriya sharoitlarida olib borilgan tadqiqotlardan olingan natijalarning matematik–statistik ishlovdan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, tajriba natijalarining mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, olingan ma'lumotlarni mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi va tadqiqot natijalarining ishlab chiqarish sharoitida keng joriy

etilganligi, Respublika va Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruzalar qilinganligi natijalarning ishonchliligini ko’rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekini urug‘larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan inokulyatsiya qilish va mineral o‘g‘itlarni maqbul me’yorlarda qo‘llanilishi kelgusi yili parvarishlangan kuzgi bug‘doy o‘simligining o‘sishi, rivojlanishi, mahsuldor poyalar soni, barg yuzasining shakllanishi hamda quruq massa to‘plashiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi hisobiga yuqori va sifatli don hosili olish mumkinligini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekini urug‘larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan inokulyatsiya qilish hamda uni parvarishlashda mineral o‘g‘itlarning maqbul me’yorlarda qo‘llanilishi hisobiga kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili olinib, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi va tadqiqotlardan olingan natijalarning amaliyotga keng joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekinida mineral o‘g‘itlar me’yorlari va nitragin qo‘llashning kuzgi bug‘doy hosildorligiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

fermer xo‘jaliklari uchun “Qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarida nitragin va mineral o‘g‘itlar qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar” tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 25 sentabrdagi №04/21-21-05/4879-son ma’lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma bugungi kunda Andijon viloyatidagi fermer va tomorqa xo‘jaliklari uchun qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug‘larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berish va mineral o‘g‘itlar qo‘llash texnologiyasi Andijon viloyatining Andijon tumanidagi fermer xo‘jaliklarida 44,0 gektar, Izboskan tumanidagi fermer xo‘jaliklarida 38,0 gektar, jami 82,0 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 25 sentabrdagi №04/21-21-05/4879-son ma’lumotnomasi). Natijada, takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug‘larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan ishlov berilib, mineral o‘g‘itlarning N<sub>60</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub> kg/ga me’yori qo‘llanilganda soyadan 25,1-27,0 s/ga don hosili olingan;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug‘larini ekish oldidan *Bradyrhizobium japonicum SB5* shtammidagi nitragin bilan ishlov berish va mineral o‘g‘itlarning N<sub>60</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub> kg/ga me’yorini qo‘llashning kuzgi bug‘doydagi so‘nggi ta’siri Andijon viloyatining Andijon va Izboskan tumanlarida jami 82,0 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 25 sentabrdagi №04/21-21-05/4879-son ma’lumotnomasi). Natijada, kuzgi bug‘doydan 57,2-59,0 s/ga don hosili olinib, takroriy ekin sifatida

yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan ishlov berilmasdan o'g'itsiz parvarish qilingan fonda yetishtirilgan kuzgi bug'doyga nisbatan 9,3-9,8 s/ga miqdorida qo'shimcha don hosili olinib, rentabellik darajasi 14,5-16,6 % ga yuqori bo'lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Dala tajribalari Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobasiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari Respublika va Xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning usullari va ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baxolanganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soyani parvarishlashdagi agrotexnologik tadbirlar, o'tmishdosh ekinlar va mineral o'g'itlar me'yorlarini kuzgi bug'doy hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy manbalar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekinini tuproq unumdorligi va kuzgi bug'doy hosildorligini oshirishdagi ahamiyati hamda turli agrotexnik omillarning takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya ekinini hosildorligini oshirishdagi samarasi bayon etilgan. Adabiyotlar sharhining so'ngida tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda kuzgi bug'doyni parvarishlashda o'tmishdosh ekinlarda qo'llanilgan mineral o'g'itlar me'yorlarini ahamiyati yuqori ekanligi hisobiga yuqori iqtisodiy

samaradorlikka erishish mumkinligi yuzasidan olingan natija, xulosa va fikrlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tajriba o‘tkazilgan xududning geografik o‘rni, izlanishlar olib borilgan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari, shuningdek takroriy ekin sifatida parvarishlangan soya va kuzgi bug‘doyni yetishtirishda qo‘llanilgan agrotexnologik tadbirlar hamda soyaning “Orzu” va kuzgi bug‘doyning “Asr” navlarining tavsifi keltirilgan.

Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitlarida olib borilib, bunda dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari”, tuproq va o‘simliklardagi tahlillar “Методы агрохимических анализов почв и растений”, “Методы агрофизических исследований” uslubiy qo‘llanmalari asosida, olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi va B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmasi hamda iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida amalga oshirilgan.

Tajribalar 10 variantni o‘z ichiga olgan xolda 3 takrorlanishda va variantlar 1 ta yarusda joylashtirilgan. Har bir variantning umumiy maydoni  $4,8 \times 50 = 240 \text{ m}^2$ , shundan hisoblisi  $120 \text{ m}^2$  ni tashkil etgan. Tajribaning umumiy egallagan maydoni 0,72 gektar. Tajribada egatlar kengligi 60 sm, egat uzunligi 50 m. Tajribada takroriy ekin soyaning “Orzu” va kuzgi bug‘doyning “Asr” navlari ekilgan.

Tajribani olib borishda foydalanilgan takroriy ekin soya va kuzgi bug‘doyning o‘sishi hamda rivojlanishini kuzatib borish ishlari umum qabul qilingan uslubnomalar asosida olib borilib, hisob kitoblar qilingan. Soya va kuzgi bug‘doyni parvarishlashda qo‘llanilgan barcha agrotexnik tadbirlar joriy etilgan tavsiyalar asosida olib borilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq holda takroriy ekin soyaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligini o‘zgarishi”** deb nomlangan uchinchi bobida, takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug‘larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilingan va qilinmagan fonlarda mineral o‘g‘itlarning turli me‘yorlarda qo‘llashni uning ko‘chat qalinligi, o‘sishi va rivojlanishi, quruq massa to‘plashi, ildizida shakllanadigan tuganaklar miqdorlari, vegetativ va generativ organlari tarkibidagi NPK miqdorlari, hosildorligi, tuproqning hajm massasi hamda agrokimyoviy xossalarini o‘zgarishiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug‘larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o‘g‘itlarning  $\text{N}_{30}\text{P}_{90}\text{K}_{60}$  va  $\text{N}_{60}\text{P}_{90}\text{K}_{60}$  kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilishi tuproqning tarkibidagi oziqa moddalarni o‘zgarishiga ijobiy ta’sir etganligi aniqlangan. Tuproqning tarkibidagi gumus miqdori takroriy ekin soyani ekish oldidan dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan uning haydov (0-30 sm) qatlamida 0,028-0,031 foizga, umumiy azot miqdori 0,008-0,010 foizga, umumiy fosfor miqdori esa 0,012-0,014 foizga ortgan.

Soya ekini urug‘larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o‘g‘itlarning  $\text{N}_{30}\text{P}_{90}\text{K}_{60}$  va  $\text{N}_{60}\text{P}_{90}\text{K}_{60}$  kg/ga me‘yorlari qo‘llanilgan variantlarda bitta o‘simlikning umumiy quruq massasi 31,2-33,3 g ni tashkil etib,

mineral o'g'itlar qo'llanilmagan o'g'itsiz nazorat variantlariga nisbatan 9,1-13,6 g ga ko'p miqdorda quruq massa to'plaganligi aniqlangan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{30}P_{90}K_{60}$  va  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorlari qo'llanilgan variantlarda uning ildizida shakllangan tuganaklar miqdori 33,4-38,3 dona ni tashkil etib, o'g'itsiz nazorat variantlariga nisbatan 12,2-20,5 donaga ko'p miqdorda hosil bo'lishini ta'minlagan. Azotli o'g'itlarning me'yoridan ortiqcha ( $N_{90}P_{90}K_{60}$  kg/ga) qo'llanilishi esa o'simlikning ildizida shakllanadigan tuganaklarning miqdorini kamayib borishiga sabab bo'lganligi aniqlangan.

Soya o'simligining vegetativ va generativ qismlarida eng ko'p miqdordagi azot elementi uning urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  va  $N_{90}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorlari qo'llanilgan variantlarda kuzatilib, ildiz qismida 0,99-1,01 %, poya qismida 0,60-0,61 %, barg qismida 1,99-2,01 %, donida 3,97-4,11 %, dukkak po'stlog'ida 1,38-1,45 % ni tashkil etganligi aniqlangan.

#### 1-jadval

##### Mineral o'g'itlar me'yorlari va nitragin qo'llashning soyani don hosiliga ta'siri, s/ga

№ var	Mineral o'g'itlar me'yorlari, kg/ga (NPK)	Yillar bo'yicha don hosili, s/ga			O'rtacha
		2015	2016	2017	
1	O'g'itsiz	15,9	14,1	16,8	15,6
2	$P_{90} K_{60}$	19,5	18,2	20,6	19,4
3	$N_{30} P_{90} K_{60}$	23,2	21,9	23,5	22,9
4	$N_{60} P_{90} K_{60}$	27,0	25,8	27,6	26,8
5	$N_{90} P_{90} K_{60}$	26,1	24,9	26,9	26,0
6	O'g'itsiz + Nitragin	18,2	16,9	19,0	18,0
7	$P_{90} K_{60}$ + Nitragin	21,4	20,6	22,7	21,6
8	$N_{30} P_{90} K_{60}$ + Nitragin	27,0	24,9	28,1	26,7
9	$N_{60} P_{90} K_{60}$ + Nitragin	28,4	26,8	29,4	28,2
10	$N_{90} P_{90} K_{60}$ + Nitragin	27,5	25,2	28,7	27,1

2015 y

NSR<sub>05</sub>=0,23 s/ga A omil

NSR<sub>05</sub>=0,37 s/ga B omil

S<sub>x</sub> =2,2%

2016 y

NSR<sub>05</sub>=0,28 s/ga A omil

NSR<sub>05</sub>=0,44 s/ga B omil

S<sub>x</sub> =2,8 %

2017 y

NSR<sub>05</sub>=0,17 s/ga A omil

NSR<sub>05</sub>=0,26 s/ga B omil

S<sub>x</sub> =1,5%

Hosildorligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60} P_{90} K_{60}$  va  $N_{90} P_{90} K_{60}$  kg/ga me'yorlari qo'llanilgan variantlarda kuzatilib, mos ravishda 28,2-27,1 s/ga ni tashkil etganligi aniqlangan (1-jadval).

Dissertatsiyaning **Takroriy ekin soyada nitragin va mineral o'g'itlar qo'llashni kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri** deb nomlangan to'rtinchi bobida, kuzgi bug'doy urug'larining laboratoriya va dala sharoitlaridagi unuvchanliklari, ko'chat qalinligi, o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, o'suv davrlarining davomiyligi, quruq massa to'plashi, barg yuzasining shakllanishi, biometrik ko'rsatkichlari, hosildorligi va donning texnologik sifat

ko'rsatkichlariga takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilish va turli me'yorlarda mineral o'g'itlar qo'llashning ta'siri yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilingan va qilinmagan fonlarda mineral o'g'itlarning turli me'yorlarda qo'llanilishi uning o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi va hosildorligiga ta'siri turlicha bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, ushbu yaratilgan fonlarda izdosh ekin sifatida parvarishlangan kuzgi bug'doy don hosilidan ajratib olingan namunalarni laboratoriya sharoitidagi unib chiqish quvvati va darajasi aniqlanganda o'tmishdosh ekin soyada qo'llanilgan mineral o'g'itlarning me'yorlari hamda nitraginni ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilib ekilishi kuzgi bug'doy urug'larining laboratoriya va dala sharoitlaridagi unuvchanliklariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinmagan fonlarda kelgusi yili kuzgi bug'doy parvarishlangan variantlarga nisbatan laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi 1,0-2,0 % ga, dala sharoitidagi unuvchanligi esa 0,1-1,3 % gacha yuqori bo'lishini ta'minlagan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi izdosh ekin sifatida parvarishlangan kuzgi bug'doyning qishlash darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda nitragin bilan inokulyatsiya qilinmagan fonlarga nisbatan 0,5-1,5 foiz atrofida kamroq o'simlik nobud bo'lishini ta'minladi.

Soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilingan fonda izdosh ekin sifatida parvarishlangan kuzgi bug'doyning rivojlanish davlari bo'yicha eng qisqa muddat takroriy ekin soyada mineral o'g'itlar qo'llanilmagan o'g'itsiz nazorat variantidan so'ng kuzgi bug'doyda yetishtirilgan variantda kuzatilib, 228 kuni tashkil etgan bo'lsa, takroriy ekin soyada mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda kuzgi bug'doyning rivojlanish davri 232 kun davom etganligi aniqlangan.

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda kuzgi bug'doyning biometrik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'simlikning bo'yi 103,2 sm ni, umumiy poyalar soni 620,4 dona/m<sup>2</sup> ni, mahsuldor poyalar soni 480,6 dona/m<sup>2</sup> ni, bitta boshodagi don soni 42,0 donani, bitta boshodagi don vazni 1,54 g ni, 1000 dona don og'irligi 43,0 g ni tashkil etganligi kuzatilgan.

Kuzgi bug'doyning quruq massa to'plashi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning  $N_{60}P_{90}K_{60}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda kelgusi yili kuzgi bug'doy parvarish qilingan variantda kuzatilib, o'simlik ildizining quruq massasi 2,37 g ni, yer ustki qismining quruq massasi 13,00 g ni, ildiz bilan ta'minlanganlik darajasi 14,81 % ni tashkil etganligi aniqlangan (2-jadval).

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilingan fonda mineral o'g'itlarning turli me'yorlari qo'llanilgan variantlarda kelgusi yili parvarishlangan kuzgi bug'doyning barg yuzasi tuplanish davrida 24,0-27,7 sm<sup>2</sup>, naychalash davrida 36,8-40,1 sm<sup>2</sup>, boshqolash davrida 61,0-69,8 sm<sup>2</sup>, gullash davrida 55,9-63,7 sm<sup>2</sup>, sut pishish davrida 37,1-41,9 sm<sup>2</sup>, mum pishish davrida 27,6-32,8 sm<sup>2</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Kuzgi bug'doy barg yuzasining shakllanishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya ekini urug'larini ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilinib, mineral o'g'itlarning N<sub>60</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub> kg/ga me'yor qo'llanilgan fonda izdosh ekin sifatida kuzgi bug'doy yetishtirilgan variantda kuzatilib, tuplanish davrida 27,7 sm<sup>2</sup>, naychalash davrida 40,1 sm<sup>2</sup>, boshqolash davrida 69,8 sm<sup>2</sup>, gullash davrida 63,7 sm<sup>2</sup>, sut pishish davrida 41,9 sm<sup>2</sup>, mum pishish davrida 32,8 sm<sup>2</sup> ni tashkil etib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan o'simlikning rivojlanish davrlariga mos ravishda 3,7; 3,3 ; 8,8; 7,8; 4,8; 5,2 sm<sup>2</sup> ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

## 2-jadval

### Takroriy ekin soyada nitragin va mineral o'g'itlar qo'llashning kuzgi bug'doyni yer ustki massasi va ildiz tizimining rivojlanishiga ta'siri (2016-2017 yy)

№	Takroriy ekin soyada qo'llanilgan mineral o'g'itlar me'yorlari, kg/ga	1 ta o'simlikning quruq massasi, g								Ildiz bilan ta'minlanganlik darajasi, %			
		Ildiz qismi				Yer ustki qismi				naychalash	boshqolash	gullash	mum pishish
		naychalash	boshqolash	gullash	mum pishish	naychalash	boshqolash	gullash	mum pishish				
1	O'g'itsiz	0,87	1,32	1,76	1,88	1,96	8,31	9,42	11,80	30,74	13,71	15,74	13,74
2	P <sub>90</sub> K <sub>60</sub>	1,08	1,61	1,81	1,99	2,12	8,65	9,53	12,75	33,75	15,69	15,96	13,50
3	N <sub>30</sub> P <sub>90</sub> K <sub>60</sub>	1,11	1,68	1,87	2,08	2,21	8,77	9,75	12,84	33,43	16,08	16,09	13,94
4	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>60</sub>	1,17	1,79	2,00	2,17	2,30	8,85	9,81	12,93	33,72	16,82	16,93	14,37
5	N <sub>90</sub> R <sub>90</sub> K <sub>60</sub>	1,14	1,72	1,94	2,12	2,24	8,81	9,78	12,88	33,73	16,33	16,55	14,13
6	Nitragin (o'g'itsiz)	1,09	1,63	1,84	2,00	2,14	8,68	9,55	12,78	33,75	15,81	16,15	13,53
7	P <sub>90</sub> K <sub>60</sub> + Nitragin	1,13	1,69	1,89	2,11	2,24	8,79	9,78	12,86	33,53	16,13	16,20	14,09
8	N <sub>30</sub> P <sub>90</sub> K <sub>60</sub> + Nitragin	1,19	1,80	2,01	2,20	2,32	8,88	9,84	12,97	33,90	16,85	16,96	14,50
9	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>60</sub> + Nitragin	1,22	1,85	2,06	2,26	2,37	8,92	9,89	13,00	33,98	17,18	17,24	14,81
